Journal of Analytical Synergy and Scientific
Horizon ISSN: 3060-5261 Impact Factor 10.5 / 2026
Volume 2, Issue 5

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA SAMARADORLIGI

Pardayeva Muhayyo Soatmo‘min qizi
Termiz davlat universiteti Jurnalistika va filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qishning zamon talablariga mos uslublari va tilning o‘rganuvchi uchun manfaatli metodlari tahlil Shuningdek,chet tillari keng ommalashgan davrda o‘zbek tilini jahon standardlariga munosib tarzda o‘qitish metodlari yoritiladi.Xususan,kommunikativ yondashuv, interfaol ta’lim metodlari, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia vositalari asosida o‘qitish hamda vazifaga yo‘naltirilgan ta’lim usullarining metodlari bayon qilinadi.O‘zbek tilini o‘rganuvchilarga tinglab tushunish, o‘qish,gapirishga yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy metodlaring ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbek tili, xorijiy tillar, zamonaviy metodlar, kommunikativlik,til bilish ko‘nikmasi, ta’lim samaradorligi,raqamli texnalogiyalar,jahon standarti,o‘qitish metodikasi.

Bugungi globallashuv jarayonida tillarni o‘qitish asosiy masalalardan biriga aylanmoqda.Xorijiy til sifatida o‘zbek tilining o‘rganilishi bir qancha imkoniyatlarga ega bo‘lishi bilan birga chuqur mas’uliyat ham talab qiladi.O‘zbek tili o‘zining boy tarixi va madaniyatiga, urf-odatlariga ega til sanaladi.Uning chet tili sifatida o‘qitilishi ijtimoiy-iqtisodiy hamda xalqaro munosabatlarda muhim o‘rin egallaydi.O‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qitilishi va ushbu tildagi savodxonlikning oshirilishi bir qancha zamonaviy til o‘qitish metodlarini talab qiladi.Ushbu metodlar o‘rganuvchining tilni tez va samarali o‘rganishga xizmat qilishi lozim.Shuni e’tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, tilimizni xorijiy til sifatida keng o‘qitilishi ber qancha muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan,o‘rganuvchining ona tili va avvalgi tajribasi hisobga olinishi lozim.Misol tariqasida o‘zbek tili yoki turkiy tillar borasida tushunchaga ega bo‘lgan odam bilan Xitoy koreys ingliz yoki arab tilida so‘zlashuvchi insonlarni o‘zaro solishtirishimiz mumkin.Ular avvaldan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan shaxslar kabi tilni tez va oson o‘rgana olmaydi.Shu boisdan o‘rganuvchining til bilish darajasiga ko‘ra o‘qitish metodlari qo‘llanilishi lozim.

Ikkinchidan,o‘zbek tilining grammatik qonuniyatlarini sodda va izchil tushuntirish zarur.Negaki ona tilimiz grammatikasi boshqa jahon tillarga nisbatan qiyinlik

ko‘rsatkichi yuqori sanaladi. Shu bois ma’lumotlar o‘rganuvchiga aniq qulay oson yetib borishi talab etiladi.

Uchinchidan,tilni o‘qitish jarayoni o‘rganuvchining maqsadiga muvofiq ravishda amalga oshirilishi kerak.Ayrimlar o‘zbek tilini ta’lim olish uchun o‘rganishni tanlashadi, boshqalar esa ish faoliyati,sayohat, ilmiy tadqiqot yoxud kundalik muloqot uchun o‘rganishi mumkin.Shunga ko‘ra ularning o‘rganish maqsadlari asosiy o‘rinni egallaydi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish uchun zamonaviy o‘rgatish metodikasi bilan ishlash talab etiladi.Jumladan, kommunikativlik uslubi .Tilni o‘rgatish jarayonida o‘rganuvchilar o‘rtasida kundalik hayotga doir suhbatni amalga oshirish ularning gapirish va tinglab tushunish darajasini oshiradi.Bu uslub sodda bo‘lishiga qaramasdan o‘rganuvchining o‘zbek tilida fikrlashiga muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tilni o‘qitishning yana bir qulay metodikasidan bir kinofilm yoki multifilmlarni kuzatishga jalb qilish.Kundalik turmush tarzi sof adabiy nutq me’yorlari bilan yoritilgan filmlar til ixlosmandlari uchun gapirish va tinglab tushunish da muhim vositasidandir.

Shuni ham aytish mumkinki, o‘zbek tili o‘qitilishida yozma savodxonlik hamda o‘qish mahoratiga chuqur e’tibor qaratish talab etiladi.Ushbu ko‘nikmalarini yaxshi shakllantirish uchun jamoada o‘zaro xat yozish mashqlarini tashkil qilish kerak.Bu metodika o‘rganuvchining o‘qib tushunish va yozish salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradi.

Tillarni o‘qitish jarayonida, avvalo,uslub,ya’ni o‘qitish metodikasiga chuqur e’tibor qaratish kerak,biroq ularni faqat nazariy jihatdan o‘rganibgina qolmay amaliyotda ham qo‘llash lozim.Buning uchun tilni o‘rganayotgan kishi savdo majmualari, dorixona kabi muloqot talab qilinadigan maskanlarda o‘zaro suhbatni amalga oshirishi muhim.Bu holat ularning haqiqiy hayotda ravon so‘zlashib keta olishi uchun imkon yaratadi.

Tilni o‘rganish uchun nafaqat dars jarayonlari balki mustaqil holda ijtimoiy tarmoqlarda ham izlanish katta samara beradi.Buning uchun jamiyatda faol qo‘llaniladigan ijtimoiy tarmoqlarga videorolik,maqola, kontentlarni publitsistik uslubda joylash lozim negaki ular orqali til ishtiyoqmandlari o‘zbek tilida gapirish, o‘qish yoki tinglab tushunish mahoratini sezilarli darajada oshirib boradi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida samarali o‘qitish uchun dars jarayonida qattiqqo‘l va mas’uliyatli bo‘lish kerak.O‘rganuvchilarning xato va kamchiliklarini to‘g‘ri baholay olish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Rabbimova Ch. O‘zbek tilini ona tili va chet tili sifatida o‘qitishning yangi texnologiyalari // Yosh olimlar. – 2026. – J. 4, № 31. – B. 109–112.
2.Pulatova D. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish: yondashuv va tahlillar // Filologiya va pedagogika. – 2026. – № 11 (30). – B. 174–175.
3.Tugalova M.F. O‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda o‘qitish tizimini rivojlantirish: muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar. – 2026.
4.Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
5.Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 5th ed. – Pearson Education, 2015.
6.Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – 6th ed. – Pearson Education, 2014.